

## FARHOD VA SHIRIN DOSTONIDAGI OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI

*Temirova Ruxshona Rustam qizi*  
*SamDCHTI 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Alisher Navoiyning ijodi haqida qisqacha ma'lumot va uning qalamiga mansub "Xamsa"ning ikkinchi dostoni bo'lmish "Farhod va Shirin" dostonidagi obrazlarning qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Bu maqolada ijodkor va obrazlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Arman yurti, obrazlar; Farhod, Shirin va Xusrav.

### KIRISH

XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan o'z davrining yirik vakili, ulug' mutafakkir, shoir, davlat arbobi, ilm-ma'rifat, badiiy ijod hamda san'atning ulkan homiysi bo'lmish Mir Alisher Navoiy ijod qilgan davr hisblanadi. Navoiy yirik so'z san'atkori sifatida turkiy badiiy ijodni ham ma'nolar va shakliy jilolar nuqtai nazaridan jahoniy mavqeiga ko'targan ijodkordir. Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevrali (hijriy 844-yil ramazon oyining 17-kuni) da Sohibqiron Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Xuroson o'lkasining poytaxti bo'lmish Hirot shahrida dunyoga keldi. Otasi G'iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan hamda bu xonadonning ishonchli kishilaridan biri edi. U o'g'lining tarbiyasi va o'qishiga jiddiy e'tibor beradi. Alisher Navoiy kichik yoshidanoq she'riyatga qiziqqa boshlagan uning ilk ustozlari - tog'alari Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylardir. Navoiy bu ulug' zotlarni "Majolis un-nafois" asarida ehtirom bilan tilga oladi.

She'riyatga qiziqish yosh Alisherni ijod qilishga undaydi. Uning 7-8 yoshlaridan boshlab she'r yozgani ma'lum. Sharqda xamsachilikning o'ziga xos tarixi va an'anasi mavjud bo'lib, shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan "Xamsa" asarini yaratish Navoiyning buyuk orzusi edi va Alisher Navoiy ushbu xamsachilikni davomchisi hisoblanadi. U qisqa muddat – ikki yil (1483-1485) davomida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugallaydi. "Xamsa"ning ichida kiruvchi "Farhod va Shirin" dostoni haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu doston 1484-yilda yozilgan ishqiy-sarguzasht mavzusidadir. Muallif bu dostoni "shavq dostoni" deb ham ataydi. Bu dostonning asosiy qahramoni Farhodning tug'ilishini quyidagicha ta'riflaydi.

Shabistonida tug'di bir yangi oy,  
Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy.

Bu jumlaning ma'nosini aniqlab oladigan bo'lsak: shabiston so'zini ikki ma'noda tushunish mumkin: kechasi va yotoqxona, tug'di – tug'ildi, yangi oy – Farhod

nazarda tutilmoqda, mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh. Ularga tayangan holda quyidagi mazmuni tushunish mumkin: ***Kechasi (yotoqxonada) yangi oy tug'ildi, uni yangi oy demaki, olamni yorituvchi quyosh edi.*** Shabiston (tun)dek xoqonning hayotida yangi oy kabi Farhod tug'ildi. Xoqonning hayoti Farhod tug'ilgunga qadar farzandsizlik tufayli qorong'u kechadek qayg'uli bo'lganligi shabistonga o'xshaydi.

Farhod onadan ishq bilan tug'ildi .Navoiy chaqaloqqa nega "Farhod" ismi qo'yganligi ikki yo'l bilan kitobat san'ati orqali izohlanadi.Uning ismi ham Qur'oni karimda:

"Al-asmou tanzilu min-as-samo", ya'ni "Ismlar osmondan tushadi", deyilganidek, ishq osmonidan tushgan.

Farhod ismi quyidagicha ta'riflanadi;

Anga farzona Farhod ism qo'ydi,  
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi:  
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

"Firoq" so'zidan "f", "rashk" so'zidan "r", "hajr" so'zidan "h", "oh" dan "o", "dard" so'zidan "d" harflarini jamlab, donolar chaqaloqqa "Farhod" ismini beradilar. Bu qo'yilgan ismda Farhodning ma'naviy va jismoniy fazilatlari aks ettirilgan. Tangri taolo uning tug'ilishidan ruhiga payvasta ishq Farhodga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi.U ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur'oni karimni yod oldi. Farhod o'z hunarining mislsiz darajasiga yetkazgan ustozlaridan san'at turlarini mohirona o'rganadi. U shunchaki, kuzatuvchi va tomoshabin bo'lib qolmasdan ularning hunarlarini o'rganishga kirishadi. Farhodning shaxsiyatida oliyjanoblik, vijdoniylik, dovyuraklik, vatanparvarlik va eng asosiysi insoniylik fazilatlari unda mujassam edi. Biz buni Farhod xatarli safarga otlanganida u yerda uch manzilda bo'lib, birinchisida ajdarhoni, ikkinchisida Ahraman devni, uchinchi manzilda esa ikkalasidan ham mushkulroq tilsimni yenggan paytda uning qanchlik mard, jasur ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ko'zgu tilsimidan Arman yurtini va u yerda tog' kesayotgan odamlarni hamda o'zini ariq qaziyotganini ko'radi va u yurtga borish istagi tug'ilishidan, ularga tog'ni kesib, uning nariga tomonidan suv olib o'tishlariga yordam berganidan uning qanchalik oliyjanob ekanligini ko'rdik. U ustozlari Boniy, Moniy va Qorandan o'rgangan mehnatini ularga yordam berishda juda ustalik bilan qo'llaydi. Shuningdek, Farhod tilsimdan Arman yurtining malikasi Mehinbonu va uning jiyani Shirinni ko'radi va Shiringa oshiq bo'lib qoladi. U Arman xalqiga yordam berib, Mehinbonu va uning jiyaning orzularini ro'yobga chiqarib, ularning mehrini va Shirinning muhabbatini qozonishga muvofaq

bo'ladi. O'sha paytda Ajam va Arabda hukm surayotgan Xusrav Parviz degan shoh bor edi. U tag-tugli qizga uylanib, o'g'il farzand ko'rish ozusida edi. Xusrav Parviz Shirining go'zalligiga va Farhod va uning o'rtasidagi munosabatlarni eshitib, Xusrav o'zining Buzurg Ummid vaziri maslahati bilan Shirinni so'rab sovchi jo'natadi. Shirin ularga rad javobini bergandan so'ng ham Xusrav bir necha bor sovchi jo'natadi va u har gal Shirindan rad javobini oladi. Xusrav Parvizning bundan jahli chiqib, Arman yurtiga lashkar tortadi. Lekin uning hamma lashkarlariga Farhodning o'zi bas keladi, dushmani shahar qal'asiga yaqinlashtirmaydi va ularning ustidan g'alaba qozonadi. Raqibni kuch bilan yengolmagan Xusrav shundan keyin Shiringa erishish uchun hiyla yo'lga o'tib, Farhodning oldiga bir hiylagar kampirni jo'natadi. U avvaliga Farhodning ishonchiga kirib oladi va Shirinni o'lganligi haqida yolg'on xabar beradi. Farhod bu xabarni eshitib, rost deb o'ylaydi va o'zini o'zi xalok etadi. Farhodning o'limini eshitgan Shirin ham Farhodning ketidan bu dunyoni tark etadi. Shundan xulosa qilish mumkinki, Xusrav o'z maqsadiga erishish uchun qanchadan-qancha hiyla-nayranglar o'ylab topib, ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'ldi. "Xusrav" fors tilida hukmdor, taxt egasi ma'nosini anglatadi. Dostondagi ramziy ma'nosiga ko'ra, u dunyoparastlik, ishqdan bebahralik, shuhrat, dunyo kabi o'tkinchi hoy-u havas, nafs voqealari timsolidir. Uning ismi ziyon, adashish ma'nosidagi "xusr", "xusron" so'zlariga ham ishora qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dostonda uning qanchalik bag'ritosh, o'z maqsadi yo'lida hech narsadan tab tortmaydigan faqat o'zini o'ylaydigan xudbin inson ekanligini ko'rish mumkin. Farhod esa aksincha, o'z maqsadlaridan ko'ra xalqning orzu-istaklarini amalga oshirish uchun qanchalik harakat qilganligini dostonni o'qib guvohi bo'ldik. Shirin obrazi esa faqat go'zalligi bilan emas, balki aqli, pokiza qalbi, jasorati, so'zdagi qat'iyati va ayniqsa, undagi turkiy qavm ayollariga xos eng baland ma'naviy fazilatlar kishini maftun etadi. Uning uchun martaba, boylik hashamat kabi o'tkinchi dunyo matohlarining hech qanday qadri yo'q, aksincha, muhabbat va pokiza inson, u uchun oliy qadriyat, undagi bu sifatlarni dostonni o'qish davomida guvohi bo'lishimiz mumkin. Voqealar ostida yashiringan obrazlarning ramzlari dostonning mohiyatni yanada oshirganligiga guvohi bo'lamiz. Alisher Navoiy obrazlarni yaratishda ularning o'ziga xos ko'plab jihatlari bilan bir-biridan yaqqol ajrata bilgan. Kitobxon nafaqat bu dostonni o'qiganda balki ijodkorning boshqa asarlarini o'qiganda ham har bir asarida o'ziga xos jihati bilan bir-biridan ajralib turishini farqlay oladi. Navoiy har bir asar yaratishda o'ziga xos usullaridan foydalanadi va bu asarga etika va estitika tomonlama asarni yanada go'zallashishini ta'minlaydi.

Alisher Navoiyning asarlarida biz falsafiy - axloqiy qarashlarini, asarlarining tili, badiiyati, g'oyalari va ta'sir doirasini juda keng ko'lamda qo'llaganini ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Navoiy asar yaratishdan asosiy maqsadi – insonni komillikka yetaklash, axloqiy-ruhiy poklanishga chorlash va insonlarni adolatli qaror chiqarishga da'vat etish hamda adolatli jamiyat barpo etishga xizmat qilish. Shuningdek, uning asarlarida biz yuqorida aytganimizdek, insonlarni ezgulikka, halollikka, rostgo'ylikka undagan va ilm-fan, ma'rifat, axloqiy tarbiyani targ'ib qilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. 2019-yil nashridan
2. Dilorom Salohiy, Gulnoz Xalliyeva, Shavkat Hayitov, Iroda Pardayeva "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti. Samarqand – 2024
3. Mohigul Uralovna Mavlonova "Farhod va Shirin" dostoni Oybek talqinida maqolasidan. <https://t.me/ares> uz
4. Valijon Qodirov "Farhod va Shirin" dostonida ramziylik ifodalari . veb-sayt: [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz)